



O'ZBEKISTONDA MA'MURIY YUSTITSIYA VA MA'MURIY SUDLAR

(UMUMIY-TAVSIFIY SIFATLAR)

Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li

TDYU Ma'muriy va moliya huquqi kafedrası

katta o'qituvchisi

j.zoilboyev@tsul.uz

+998946796649

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8288852>

ARTICLE INFO

Received: 22th August 2023

Accepted: 27th August 2023

Online: 28th August 2023

KEY WORDS

Yustitsiya, ommaviy nizolar, ma'muriy tartib, ma'muriy sud.

ABSTRACT

Mazkur maqolada muallif tomonidan ommaviy-huquqiy nizolarni hal etishning qonunchilikda belgilangan usuli sanalga ma'muriy yustitsiya hamda uning O'zbekistonda amalda bo'lgan sud tartibi tahlil qilinadi. Tahlil davomida ma'muriy yustitsiyaning dastavval nazariy-huquqiy jihatlar va qonuniy meyorlari tahlil ostiga olinadi. Shuningdek, qonun hujjatlari yordamida va sud statistik ma'lumotlari asosida mavzuning dolzarbligi ochib beriladi. Maqolada muallifning shaxsiy fikrlari va xulosalar o'rin olgan.

Ma'muriy-huquqiy nizolar o'z mazmun-mohiyatiga ko'ra ommaviy-huquqiy nizolar bo'lganidan, ularni samarali hal etish davlat boshqaruvining hamda dvalat xizmatchilarining oldida turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Zero, fuqarolar hamda yuridik shaxslar davlat organlaridan hamda sud organlaridan, shu bilan birga davlat xizmatchilaridan, ularning qonuniy xatti-harakatlari, qarorlaridan rozi bo'lsargina, "ijtimoiy davlat"¹ni barpo etish mumkin bo'ladi. Zero, odamlarni, xalqni rozi qilish ijtimoiy davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Zero, davlat organlari hamda mansabdor shaxslar xalq manfaatiga xizmat qilmog'i darkor².

Ma'muriy-huquqiy nizolar, ya'ni ommaviy boshqaruv jarayonida yuzaga keladigan nizolarni hal etish yurisprudensiyada "ma'muriy yustitsiya"³ deb atalishi ma'lum. Xususan ma'muriy yustitsiyaga bir qator olimlar o'z fikrlarini bildirib o'tishgan. Jumladan huquqshunoslar S.Muratayev, B.Musayev va D.Artikovlarning tahliliga ko'ra, ma'muriy yustitsiya bu - "davlat organlari va mansabdor shaxslar bilan jismoniy hamda yuridik shaxslar o'rtasida davlat boshqaruvi mubosabatlaridan kelib chiqadigan ma'muriy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish va hal etish tizimi"⁴ sifatida keltiriladi. Bundan shu ma'lum bo'ladiki, ma'muriy

¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Muqaddima. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son// <https://lex.uz/docs/-6445145>

² SH.Mirziyoyev

³ Administrative justice as a field of study. [Marc Hertogh \(ed.\)](#), [Richard Kirkham \(ed.\)](#), [Robert Thomas \(ed.\)](#), [Joe Tomlinson \(ed.\)](#). Online ISBN:9780190903091, Print ISBN: 9780190903084. Oxford University Press. 2021.

⁴ Ma'muriy huquq va protsess. S.Muratayev, B.Musayev va D.Artikov.



yustitsiya davlat boshqaruvi sohasida yuzaga keladigan nizolarni hal etish tartibi hamda tizimi hisonladi. Shuningdek, yana bir qator olimlarning fikriga ko'ra ma'muriy yustitsiya ma'muriy ta'sir chorasida bilan birgalikda ma'muriy huquqning ajralmas bir qismi hisoblanadi⁵. Yuridik fanlari doktori, huquqshunos J.Nematovning fikriga ko'ra O'zbekistonda ma'muriy yustitsiyaning shakllanishida, mavjud bo'lgan huquqbuzarlikka oid ishlarni sudga ko'rish emas, balki ommaviy-huquqiy nizolarni ko'rib chiqish institutining shakllanishi eng muhim o'zgarishlardan biri sanaldi.⁶ Yuqoridagilardan ko'rib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, ma'muriy yustitsiya ma'muriy huquqiy munosabatlar doirasida yuzaga keladigan nizolarni ko'rib chiqish, ularni hal qilish tartibi hamda tizimi hisoblanar ekan⁷. Bu albatta, bizning shaxsiy qarashimiz hamda mushohadamizligini inobatga olish zarur.

Olimlarning qarashlariga ko'ra, ma'muriy yustitsiyaning ikki shakli mavjud sanaladi. Ular quyidagilar:

1. Ma'muriy tartib;
2. Sud tartibi.

Ma'muriy yustitsiyaning ma'muriy tartibi amaldagi qonunchiligimizga ko'ra "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'RQ 457-son Qonunga ko'ra hal etiladi⁸. Jumladan, qonunning 63-moddasiga ko'ra, Manfaaddor shaxs ma'muriy shikoyatni qonunchilikka muvofiq ma'muriy shikoyatlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan yuqori turuvchi ma'muriy organga yoki boshqa vakolatli ma'muriy organga ustidan shikoyat qilinayotgan ma'muriy hujjatni, protsessual hujjatni qabul qilgan yoxud ma'muriy harakatni amalga oshirgan ma'muriy organ orqali berishi mumkin.

Ammo, biz ilmish ishimiz doirasida ma'muriy yustitsiyaning ma'muriy tartibini emas, Ma'muriy sudlarda ko'rib, hal etiladigan sud tartibining birinchi instansiya sudida ish yuritishning o'ziga xos jihatlarini tahlil qilishimiz maqsadga muvofiq. Nizolarni sud tartibida hal etish har jihatdan huquqiy adolatni ta'minlashda juda muhim o'rin egallaydi. Boisi, davlat hokimiyati vakolatlarining bo'linish prinsipiga ko'ra, hokimiyatlar o'zaro vazifalar tasimotini amalga oshiradilar. Xususan, Konstitutsiyamizning 11-moddasida belgilanishsicha: "O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi prinsipiga asoslanadi"⁹. Bundan anglashiladiki, sud hokimiyati davlat boshqaruvida hamda, hokimiyatlar tizimida muhim o'ringa hamda ahamiyatga ega tizim sifatida odil sudlovni amalga oshiruvchi birdan bir mexanizm sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (21.10.2016 yil PF-4850-son) ning qabul qilinishi bilan Respublikamizda ma'muriy sudlarning alohida sud sifatida shakllanishi hamda ma'muriy sud

⁵ Hojiyev E.T. Administrative law. Textbook for professional colleges, Science, 2010. P. 204

⁶ Nematov, N. (2020). WOULD THE NEW ADMINISTRATIVE COURT SYSTEM BE MILESTONE TO CHANGE POST-SOVIET ADMINISTRATIVE LAW IN UZBEKISTAN?. Review of law sciences, (4), 16-20. doi: 10.24412/2181-1148-2020-4-16-20

⁷ Muallifning qarashlari

⁸ O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'RQ 457-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son// <https://lex.uz/docs/-3492199#-3493233>

⁹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 11-modda. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son// <https://lex.uz/docs/-6445145>



ish yurituvining yuzaga kelishi uchun ilk qadamlar bo'lib xizmat qildi. Mazkur farmonda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokuraturasi va Adliya vazirligi ilg'or xorijiy tajribani chuqur o'rganish asosida 2017-yil 1-iyulga qadar *fuqarolik, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar va xo'jalik sudlarining vakolatlarini qayta ko'rib chiqish yo'li bilan ma'muriy sudlarni tashkil etish* taklifi keltirilgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (21.02.2017 yil PF-4966-son)ga ko'ra fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquqlari, erkinliklari, qonuniy manfaatlarining ishonchli sud himoyasini ta'minlash, ma'muriy sud ish yurituvini amalga oshirish bo'yicha konstitutsiyaviy normani, shuningdek aholining huquqiy madaniyatini oshirish zarurati ma'muriy sudlar tizimini tashkil etishni taqozo etilayotganligi bayon qilingandi. Mazkur farmonga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, Oliy xo'jalik sudi va Mudofaa vazirliklari tomonidan berilgan quyidagi takliflar maqullanib, 2017-yil 1-iyundan:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudini birlashtirish, fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvini sohasidagi sud hokimiyatining yagona oliy organi — O'zbekiston Respublikasi Oliy sudini tashkil etish;
- ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolarni, shuningdek ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlarini, tuman (shahar) ma'muriy sudlarini tashkil etish;
- O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining Harbiy hay'atini tugatib, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'atini tashkil etish tasdiqlangan edi.

PF-4966 bilan Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari uchun 216 ta birlik, shundan sudyalar — 73 ta birlik; tumanlararo ma'muriy sudlari uchun 168 ta birlik, shundan sudyalar — 70 ta birlik ajratilishi mustahkamlab qo'yildi.

2023-yil 16-yanvarda qabul qilingan "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezident farmoniga ko'ra ma'muriy sudlar faoliyatida bir qator o'zgarishlar nazarda tutildi. Jumladan, Huquqni qo'llash amaliyotini tanqidiy tahlil qilish asosida hamda ilg'or xorijiy tajribani inobatga olgan holda **ma'muriy sud ish yurituvini takomillashtirish choralari ko'rish** bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar ko'rilishi belgilandi:

- ✚ **Ma'muriy sud ish yurituvini takomillashtirish konsepsiyasini** ishlab chiqish.
- ✚ ma'muriy organlar bilan fuqarolar va tadbirkorlar o'rtasidagi barcha nizolarni xatlovdan o'tkazib, sudlovga taalluqliligiga oid qoidalarni takomillashtirish;
- ✚ ma'muriy sud ish yurituvini prinsiplarini tanqidiy o'rganib, ommaviy-huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini aks ettiruvchi prinsiplarni kiritish;
- ✚ ma'muriy sud ish yurituviga da'vo institutini kiritib, ma'muriy organlar ustidan beriladigan **da'vo turlarini aniq belgilash**;
- ✚ fuqarolar va tadbirkorlarning ma'muriy hujjatga bo'lgan ishonchini himoya qilish tizimini tanqidiy o'rganib, yetkazilgan zararni undirish tartibini aniqlashtirish;



Ma'muriy sudlar faoliyatiga huquqi buzilgan fuqaro — arizachining xohishiga ko'ra **eksterritorial sudlovga tegishlilik** mexanizmini joriy etish. Shuningdek, 2023-yilning 26-aprel sanasida qabul qilingan "Davlat organlari bilan munosabatlarda fuqarolar va tadbirkorlik subyektlari huquqlarining samarali himoya qilinishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha choralari ko'rilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi 833-son Qonuniga ko'ra¹⁰, ma'muriy sudlarda bir qator o'zgarishlar amalga oshirildi. Jumladan, endi agar sudga taqdim etilgan talablarning biri fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga, ikkinchisi esa ma'muriy suydarga taalluqli bo'lsa, bunday ishlarni birlashtirishga yo'l qo'yilmaydigan bo'ldi¹¹(MSIYtK ning 26-moddasi); ma'muriy sudlar mulkiz zarar bilan bog'liq nizolarni ham ko'rib chiqishlari(MSIYtK ning 27-moddasi¹²); dastlabki himoya choralari safiga endi javobgarning mulkini xatlash dastlabki himoya chorasi ham kiritildi(MSIYtK ning 93-moddasi); ish yuritishni tugatish instituti ham yana bir yangi asos bilan boyitildi, endi kelishuvning mavjudligi ham ish yuritishni tugatish uchun asos bo'ladi(MSIYtK ning 108-moddasi); shu bilan birga yangi bir bob sifatida yarashuv institutini qo'llash masalasi, tartibi va asoslarini belgilab beruvchi 15¹-bob kiritildi.

2017-yil 1-iyundan O'zbekiston tarixida birinchi marotaba fuqarolik, jinoyat va iqtisodiy sudlardan alohida bo'lgan ma'muriy sudlarning joriy etilishi¹³, shuningdek, O'zbekiston tarixida birinchi marotaba ikkita yangi qonun, ya'ni 2018-yil 8-yanvarda O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonunining¹⁴, 2018-yil 25-yanvarda esa Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksning (MSIYutK)¹⁵ qabul qilinishi bilan O'zbekistonda ma'muriy huquq rivojining mutlaq yangi, muhim bosqichi, davri boshlab bergan bo'lsa, **2023-yil 26-aprelda 833-sonli** qonunning qabul qilinishi natijasida Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksga yuqorida sanalgan o'zgarishlarning kiritilishi O'zbekistonda Ma'muriy sudlar faoliyatini yana bir pog'onaga ko'tardi deyishimiz mumkin.

Statistik ma'lumotarga qaraganda joriy yilning 3-iyun holatiga ko'ra Ma'muriy sudlar tomonidan ko'rib chiqilgan ishlarning jami soni **87 705** tani tashkil etadi¹⁶. Birinchi instantsiyada **70 187** ta, Apellyasiya instantsiyasida 12 953 ta, Kassasiya instantsiyasi 3 905 ta, Takroriy kassasiyada esa 660 ta ish ko'rilgan. Bu shuni ko'rsatadiki, ma'muriy huquqiy

¹⁰ Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son/<https://lex.uz/docs/-6442570>

¹¹ Oldin bunday mazmundagi talablar birlashtirilgan holda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda ko'rilar edi.

¹² Avval bunday ishla ma'muriy sudlarda emas, fuqarolik sudlarida ko'rib chiqilar edi.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y., 06/17/5195/0033-son).

¹⁴ O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida" gi O'RQ-457-son qonuni. (Kuchga kirish sanasi 10.01.2019. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018-y., 03/18/457/0525-son).

¹⁵ O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 25 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksini tasdiqlash haqida"gi O'RQ-462-son qonuni (Kuchga kirish sanasi 01.04.2018. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 03/18/462/0626-son).

¹⁶ <https://public.sud.uz/report>



nizolar yildan yilga son jihatdan oshib bormoqda. Shuningdek statistik ma'lumotlar ham shuni ko'rsatmoqdaki, ma'muriy sudlarda nizolarni ko'rish dinamikasi oshib bormoqda.

Маъмурий судлар томонидан оммавий nizolarning кўриб чиқилиши динамикаси

№	Худудлар	2019 й.			2020 й.			2021 й.			2022 й.			2023 й. 3 ойи		
		Жами кўрилган оммавий nizolar	шундан		Жами кўрилган оммавий nizolar	шундан		Жами кўрилган оммавий nizolar	шундан		Жами кўрилган оммавий nizolar	шундан		Жами кўрилган оммавий nizolar	шундан	
			қаноат-лантирилган	%		қаноат-лантирилган	%		қаноат-лантирилган	%		қаноат-лантирилган	%		қаноат-лантирилган	%
1	Андижон вилояти	608	306	50%	456	223	49%	672	307	46%	671	265	39%	183	86	47%
2	Бухоро вилояти	586	370	63%	545	329	60%	828	427	52%	876	467	53%	211	112	53%
3	Жиззах вилояти	437	236	54%	555	376	68%	512	259	51%	590	305	52%	152	79	52%
4	Қашқадарё вилояти	1 952	1569	80%	1 297	956	74%	1 393	803	58%	1 271	637	50%	313	174	56%
5	Қорақалпоғистон Р.	901	634	70%	731	529	72%	779	428	55%	756	438	58%	179	117	65%
6	Навоий вилояти	671	589	88%	671	579	86%	931	788	85%	1 050	828	79%	236	192	81%
7	Наманган вилояти	1 319	1056	80%	1 141	832	73%	1 027	615	60%	988	497	50%	247	104	42%
8	Самарқанд вилояти	1 295	679	52%	1 075	507	47%	1 148	360	31%	1 209	508	42%	261	112	43%
9	Сирдарё вилояти	210	76	36%	206	74	36%	334	135	40%	570	296	52%	112	40	36%
10	Сурхондарё вилояти	1 567	1280	82%	935	594	64%	762	336	44%	593	171	29%	123	56	46%
11	Тошкент вилояти	1 440	864	60%	1 220	700	57%	1 619	866	53%	2 020	884	44%	410	161	39%
12	Тошкент шаҳар	1 824	1019	56%	1 594	988	62%	2 249	1 273	57%	2 705	1 437	53%	733	401	55%
13	Фарғона вилояти	1 571	982	63%	1 555	1005	65%	1 256	552	44%	951	344	36%	232	67	29%
14	Хоразм вилояти	1 874	1482	79%	3 085	2438	79%	1 633	727	45%	1 094	381	35%	287	106	37%
ЖАМИ		16 255	11 142	69%	15 066	10 130	67%	15 143	7 876	52%	15 344	7 458	49%	3 679	1 807	49%

1-jadval. Ma'muriy sudlarda ommaviy bizolarning ko'rib chiqilishi dinamikasi

Ko'rinib turibdiki, 2023-yilning 3 oyi davomida 3 679 ta ish ko'rilganligini alohida ta'kidlash mumkin.

Oliy Sud tomonidan tushuntirish berilishicha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud-huquq tizimini yanada takomillashtirish va sud hokimiyati organlariga ishonchni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 13-iyuldagi PF-5482-sonli Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Rayosatining "Sud amaliyoti obzorlarini tayyorlash va e'lon qilish to'g'risida" 2018-yil 27-iyuldagi RS-44-18-sonli qarorining 2-bandi ijrosini ta'minlash maqsadida, Oliy sudning ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'ati tomonidan 2022-yilning uchinchi choragida kassasiya tartibida ko'rilgan ishlar bo'yicha sud amaliyoti obzori tayyorlangan bo'lib, unda quyidagi ma'lumotlar o'rin olgan:

- 2022-yil uchinchi choragida Oliy sudning ma'muriy ishlar bo'yicha sudlov hay'atida kassasiya shikoyatlari (protestlari) asosida **377** ta ish ko'rilgan bo'lib, shundan
- 312 tasi bo'yicha sud hujjatlari o'zgarishsiz qoldirilgan, 2 tasi bo'yicha sud hujjatlari o'zgartirilgan, **59** tasi bo'yicha sud hujjatlari bekor qilingan, 4 tasi bo'yicha ish yuritish tugatilgan.
- Shuningdek, ishni kassasiya tartibida takroran ko'rish to'g'risidagi protestlar asosida 12 ta ish ko'rib chiqilgan.
- Tahlil natijalariga ko'ra, birinchi va apellyasiya instantsiyasi sudlari tomonidan aksariyat hollarda ishlar to'g'ri hal etilgan bo'lsa-da, moddiy va prosessual huquq normalari buzilishiga yo'l qo'yanlik holatlari ham mavjud.

Xulosa qilib aytganda, ma'muriy yustitsiyaning O'zbekistonda qonunchilik bilan tartibga olingan usuli sud tartibi sanaladi. Hozirgi kunda esa ma'muriy sudlarda yuzaga kelayotgan ommaviy-huquqiy nizolar samarali hal etiloqmoqda deyishimiz mumkin. Bunda bir narsani



inobatga olish kerakki, har qanday nizoda manfaatdor shaxslarning huquq va manfaatlari yotadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Muqaddima. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son// <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. Administrative justice as a field of study. [Marc Hertogh \(ed.\)](#), [Richard Kirkham \(ed.\)](#), [Robert Thomas \(ed.\)](#), [Joe Tomlinson \(ed.\)](#). Online ISBN:9780190903091, Print ISBN: 9780190903084. Oxford University Press. 2021.
3. Ma'muriy huquq va protsess. S.Muratayev, B.Musayev va D.Artikov.
4. Hojiyev E.T. Administrative law. Textbook for professional colleges, Science, 2010. P. 204
5. Nematov, N. (2020). WOULD THE NEW ADMINISTRATIVE COURT SYSTEM BE MILESTONE TO CHANGE POST-SOVIET ADMINISTRATIVE LAW IN UZBEKISTAN?. Review of law sciences, (4), 16-20. doi: 10.24412/2181-1148-2020-4-16-20
6. O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi O'RQ 457-son Qonuni. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son// <https://lex.uz/docs/-3492199#-3493233>
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 11-modda. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son// <https://lex.uz/docs/-6445145>
8. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 27.04.2023-y., 03/23/833/0236-son//<https://lex.uz/docs/-6442570>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4966-son farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.09.2017 y., 06/17/5195/0033-son).
10. O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 8-yanvardagi "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida" gi O'RQ-457-son qonuni. (Kuchga kirish sanasi 10.01.2019. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.01.2018-y., 03/18/457/0525-son).
11. O'zbekiston Respublikasining 2018 yil 25 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy sud ishlarini yuritish to'g'risidagi kodeksini tasdiqlash haqida"gi O'RQ-462-son qonuni (Kuchga kirish sanasi 01.04.2018. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.01.2018-y., 03/18/462/0626-son).
12. <https://public.sud.uz/report>